e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://orcid.org/0009-0005-7970-6309

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA MUHITNING MOTIVATSION VA KOGNITIV OMILLARI

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti, dotsent, (DSc).
e-mail: https://isaboyevadilyora.gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0005-7970-6309

Annotatsiya.
Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ta’lim muhitining motivatsion va kognitiv omillari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Kommunikativ muhitning mazmun-mohiyati, tarkibiy xususiyatlari hamda uning o‘quvchi shaxsining intellektual, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, kommunikativ faollikni rag‘batlantirishda ichki va tashqi motivatsiya, qiziqish, ehtiyoj va shaxsiy ma’noning o‘rni, kognitiv strategiyalarning tafakkur jarayonlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Ta’lim jarayonida neyropedagogik va psixologik mexanizmlardan foydalanish, empatik muloqot, refleksiya, ixtiyoriy diqqatni rag‘batlantirish hamda verbal va noverbal muloqot shakllarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Integrativ-kommunikativ ta’lim muhitini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari va samarali yondashuvlari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, kommunikativ muhit, motivatsion omillar, kognitiv omillar, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kognitiv strategiyalar, neyropedagogika, empatik muloqot, refleksiya, verbal muloqot, noverbal muloqot, boshlang‘ich ta’lim, nutqiy faollik.

МОТИВАЦИОННЫЕ И КОГНИТИВНЫЕ ФАКТОРЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Исабоева Дилёра Зокиржон кизи
Кокандский государственный университет, доцент, (DSc).

Аннотация.
В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются мотивационные и когнитивные факторы образовательной среды, влияющие на формирование коммуникативной компетенции учащихся в процессе начального образования. Раскрываются сущность и содержание коммуникативной среды, её структурные особенности, а также влияние на интеллектуальное, речевое и социальное развитие личности учащегося. Кроме того, рассматривается роль внутренней и внешней мотивации, интереса, потребностей и личностного смысла в стимулировании коммуникативной активности, а также возможности когнитивных стратегий в развитии мыслительных процессов. Обосновывается значение использования нейропедагогических и психологических механизмов в образовательном процессе, эмпатического общения, рефлексии, стимулирования произвольного внимания, а также вербальных и невербальных форм коммуникации для развития коммуникативной компетенции. Сформулированы научные выводы относительно педагогических возможностей и эффективных подходов к организации интегративно-коммуникативной образовательной среды.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, коммуникативная среда, мотивационные факторы, когнитивные факторы, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, когнитивные стратегии, нейропедагогика, эмпатическое общение, рефлексия, вербальная коммуникация, невербальная коммуникация, начальное образование, речевая активность.

MOTIVATIONAL AND COGNITIVE FACTORS OF THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi
Kokand State University, Associate Professor, (DSc).

Abstract.
This article provides a scientific and pedagogical analysis of the motivational and cognitive factors of the educational environment that influence the development of students' communicative competence in primary education. It examines the essence, content, and structural characteristics of the communicative environment, as well as its impact on students' intellectual, linguistic, and social development. Furthermore, the study

ISSN 3060-5059 (Online)

explores the roles of intrinsic and extrinsic motivation, interest, needs, and personal meaning in stimulating communicative activity, along with the potential of cognitive strategies to enhance thinking processes. The importance of applying neuropedagogical and psychological mechanisms in the educational process, fostering empathetic communication and reflection, stimulating voluntary attention, and incorporating verbal and nonverbal forms of communication in the development of communicative competence is substantiated. Scientific conclusions are drawn regarding the pedagogical opportunities and effective approaches to establishing an integrative communicative learning environment.

Keywords: communicative competence, communicative environment, motivational factors, cognitive factors, intrinsic motivation, extrinsic motivation, cognitive strategies, neuropedagogy, empathetic communication, reflection, verbal communication, nonverbal communication, primary education, speech activity.

Kirish. Kommunikativ muhit ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi mazmunli, maqsadli, muloqotga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir imkoniyatlarini vujudga keltiradigan, nutqiy faollikni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy-pedagogik muhitdir. Ushbu muhit orqali o‘quvchilarda fikr bildirish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish, mulohazali tinglash va ma’noni anglash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Kommunikativ muhit bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini oddiy axborot almashinuvi emas, balki interfaol jarayon sifatida shakllantiradi. Shu bois ta’lim jarayonida ushbu muhitning o‘rni nafaqat lingvistik kompetensiya, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiylashuv bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Kommunikativ muhitda o‘quvchilar mustaqil fikr bildirish, savol berish, mulohaza yuritish, so‘z orqali ta’sir o‘tkazish, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin ifoda etish kabi qobiliyatlarini rivojlantiradilar. A. V. Xutorskoy ta’limdagi kommunikativ muhitni “Fanlar va shaxslar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni ta’minlaydigan, ma’no yaratish va anglash jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi integrativ makon” sifatida ta’riflaydi. Bu ta’rifning ilmiy ahamiyati shundaki, u kommunikativ muhitni fanlararo munosabatlar va shaxslararo hamkorlik kontekstida baholaydi. Ya’ni ta’lim makonida nafaqat o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, balki o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi fikr almashinuvi, shaxsiy pozitsiyalarning shakllanishi va ma’no yaratish faoliyati ham asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida insonning faol subyekt sifatida ishtirokini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, ta’lim muhitining motivatsion va kognitiv xususiyatlarini o‘rganish pedagogika, psixologiya hamda ta’lim metodikasi sohalaridagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur muammoning nazariy asoslarini yoritishda ta’lim muhitining shaxs rivojiga ta’siri, o‘quv faoliyatining motivatsion mexanizmlari va bilish jarayonlarini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi.

A. V. Xutorskoyning ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsining mustaqil faoliyati, ijodiy fikrlashi va kompetensiyaviy rivojlanishi bilan bog‘liq holda talqin etishi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Uning kompetensiyaviy yondashuvga oid qarashlarida bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘zaro hamkorlikda ishlash masalalari alohida o‘rin tutadi [1].

Ye. V. Bondarevskayaning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida o‘quvchining individual imkoniyatlari, qadriyatlari, ehtiyojlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv kommunikativ muhitni tashkil etishda o‘quvchining faol subyekt sifatidagi ishtirokini ta’minlash, o‘z fikrini erkin ifodalash va boshqalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini asoslaydi [2].

L. S. Vigotskiyning tafakkur va nutqning o‘zaro munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari kommunikativ kompetensiyaning kognitiv asoslarini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Olim nutq va tafakkur rivojini o‘zaro uzviy bog‘liq psixologik jarayonlar sifatida izohlaydi. Ushbu qarashlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash, nutqiy ifoda, tushunish va muloqot jarayonlarini birgalikda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Motivatsiyaning ta’lim jarayonidagi o‘rnini o‘rganishda R. M. Ryan va E. L. Deci tomonidan ishlab chiqilgan ichki va tashqi motivatsiya nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar ichki motivatsiyani insonning tabiiy bilishga intilishi va faoliyatdan qoniqish olishi bilan bog‘laydilar. Tashqi motivatsiya esa rag‘bat, baholash va ijtimoiy talablar ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, mustaqillik, o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari motivatsion rivojlanishning muhim shartlaridir [4, 54–67-b.].

G. M. Andreyevaning ijtimoiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida muloqot shaxslararo munosabatlarni shakllantiruvchi, axborot almashinuvi va o‘zaro ta’sirni ta’minlovchi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv kommunikativ kompetensiyani faqat nutqiy qobiliyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishish, suhbatdoshni tushunish va hamkorlik qilish qobiliyati sifatida o‘rganish imkonini beradi [5].

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish, o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Jumladan, R. A. Mavlonovaning boshlang‘ich ta’lim taraqqiyotiga oid qarashlari, A. Mavlyanov va hammualliflarining o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish hamda dars mashg‘ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga doir ishlari ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini anglashga xizmat qiladi [6; 7].

S. Matchonovning adabiy ta’limni texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirishga oid tadqiqotlari o‘quvchilarning matnni anglash, mustaqil mushohada yuritish va o‘z munosabatini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir [8, 49–53-b.].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda motivatsion va

1.

kognitiv omillarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq pedagogik mexanizmlar sifatida o‘rganish zarur. Mavjud tadqiqotlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, motivatsiya, tafakkur va muloqot masalalari turli yo‘nalishlarda yoritilgan bo‘lsa-da, ularni boshlang‘ich ta’limdagi integrativ-kommunikativ muhit doirasida yaxlit tizim sifatida uyg‘unlashtirish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan shu jihatga e’tibor qaratilib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning motivatsion va kognitiv asoslari o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta’lim muhitining motivatsion va kognitiv omillarini o‘rganish uchun ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, kommunikativ muhitning tarkibiy xususiyatlari, motivatsion mexanizmlar hamda kognitiv strategiyalarning o‘zaro aloqadorligi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Olingan nazariy xulosalar asosida boshlang‘ich ta’limda integrativ-kommunikativ muhitni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

NATIJALAR

Muallifning ta’rifi zamonaviy neyropedagogik va kognitiv yondashuvlar bilan ham uyg‘unlik kasb etadi. Chunki bu yerda ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish muhiti sifatida tushuntirilmoqda. Ma’no yaratish va anglash tushunchalarining ta’lim muhitidagi ustuvorligi ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Shu asosda aytish mumkinki, A. V. Xutorskoyning ta’rifi integrativ-kommunikativ muhitni shakllantirishga oid nazariy izlanishlar uchun mustahkam metodologik poydevor vazifasini o‘taydi. Uning ta’rifi muammoni nafaqat didaktik, balki falsafiy va psixologik jihatdan ham keng anglash imkonini beradi.

Ye. V. Bondarevskaya esa bunday muhitni “O‘quvchi shaxsining salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashuvchi, axloqiy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, faol shaxslar o‘rtasidagi hamkorlik va muloqot muhiti” sifatida tavsiflaydi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, ta’lim muhiti faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsni ma’naviy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy va intellektual jihatdan har tomonlama rivojlantiruvchi keng qamrovli tarbiya muhiti sifatida tushuntirilmoqda. Bondarevskaya ta’lim muhitini jamiyat ehtiyojlari va shaxsiy taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydigan, maqsadga yo‘naltirilgan tizim sifatida ko‘radi.

Ye. V. Bondarevskaya ta’rifidagi eng muhim jihat shaxsning markaziy o‘rinda turishidir. Bunday shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim muhitining tuzilishini, undagi o‘zaro munosabatlar va faoliyat mazmunini nafaqat pedagogik, balki aksiologik nuqtayi nazardan ham qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Bu, o‘z navbatida, integrativ-kommunikativ muhit konsepsiyasi uchun muhim nazariy asos yaratadi. Umuman olganda, Ye. V. Bondarevskaya ta’rifi ta’lim muhitidagi tarbiyaviy, ma’rifiy va shaxsga yo‘naltirilgan omillarning ustuvorligini ta’kidlab, mazkur muhitni komil shaxsni shakllantirish vositasi sifatida ko‘radi. Bu ta’rif integrativ-kommunikativ muhitni shakllantirishda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarni joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Ye. V. Bondarevskaya va A. V. Xutorskoy ta’riflarini tahlil etish natijasida integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etiladi:

Integrativ-kommunikativ ta’lim muhiti — bu shaxsning intellektual, ijtimoiy, ma’naviy va nutqiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, fanlararo bog‘liqlik va subyekt-subyekt muloqoti asosida tashkil etiladigan, ma’no yaratish, fikr almashish va ijtimoiy tajriba orttirishni ta’minlovchi pedagogik-didaktik makondir.

Bu ta’rifda ta’lim muhiti faqat ma’lumot berish emas, balki faol muloqot, fikrlash va shaxsiy kamolotni rag‘batlantiruvchi tizim sifatida ifodalangan bo‘lib, zamonaviy pedagogikaning gumanistik va kognitiv talablariga to‘liq mos keladi.

Bizningcha, kommunikativ muhitning tarkibiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, u subyektlar o‘rtasidagi tenglik va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni talab qiladi.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonida faol muloqotni ta’minlovchi didaktik vositalar (keysli tahlil, jamoaviy munozara, kvest, rolli o‘yinlar) bilan boyitilgan bo‘ladi.

Uchinchidan, shaxsning nutqiy qobiliyatini faollashtirishga qaratilgan lingvistik va kognitiv jarayonlarni uyg‘unlashtiradi.

Bunday muhitda ta’lim faqat axborot yetkazish emas, balki ma’no yaratish va ijtimoiy anglash faoliyati sifatida shakllanadi. Shu jihatdan kommunikativ muhit o‘zining pedagogik qiymati bilan innovatsion ta’lim jarayonining asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Kommunikativ muhit orqali faol shaxsni shakllantirish ta’limning boshlang‘ich bosqichida, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchi shaxsining nutqiy faolligi, fikrlash madaniyati, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish qobiliyati va ichki faolligi shakllanadi. Kommunikativ muhitni yaratishda ta’lim mazmunining bola ongiga yaqin, hayotiy vaziyatlarga bog‘langan, mulohaza va munosabat talab etuvchi tarzda tashkil etilishi muhimdir. Bunday muhitda o‘quvchi fikrini erkin ifodalash, jamoaviy muhokamaga qo‘shilish, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish, boshqalarni eshitish va ularni anglash orqali shaxs sifatida faollashib boradi. Shuningdek, kommunikativ muhit faqat muloqot uchun sharoit emas, balki o‘quvchida ijtimoiy anglash, ma’no yaratish, axloqiy pozitsiya va shaxsiy qaror qabul qilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi muhitdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kommunikatsiya nafaqat nutqiy rivojlanish, balki ularning mustaqil fikrlashi, shaxsiy munosabati va ijtimoiy hissiyotlarini ham shakllantiradi. Pedagog bolalarda nutqiy faollikni rag‘batlantiruvchi usullar: fikr yuritish maydonlari, muhokama burchaklari, rolli dialoglar, “mulohazali savollar” kabi topshiriqlar yordamida shaxsiy ishtirokni faollashtiradi. A. V. Xutorskoy ta’kidlaganidek, “Kommunikativ muhit insonning mustaqil fikrlash, muloqotda o‘z pozitsiyasini aniqlash va boshqalarning fikrini inobatga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish uchun asosiy omil hisoblanadi”. Shu asosda boshlang‘ich ta’limda integrativ-kommunikativ muhitni shakllantirish nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsiy faollikni rag‘batlantiruvchi pedagogik

mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bunday muhitda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki anglaydi, fikr yuritadi, muloqotga kirishadi va faol shaxsga aylanadi.

Motivatsion omillar ta’lim muhitining faollashuvida va o‘quvchilarning kommunikativ faolligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchi shaxsining o‘qishga bo‘lgan ichki va tashqi qiziqishi, ijtimoiy-emotsional ehtiyojlari va shaxsiy muvaffaqiyatga intilishi motivatsion jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim muhitida motivatsiya nafaqat harakatlantiruvchi kuch, balki muloqotga kirishish, faol ishtirok etish va nutqiy ifodalashga undovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ta’lim muhitini shakllantirishda o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va ichki rag‘batlarini hisobga olgan holda motivatsion faollikni oshiruvchi shart-sharoitlarni yaratish zarur hisoblanadi.

Ichki va tashqi motivatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan munosabati, faolligi va harakatlanish xususiyatlarini belgilab beradi. Ichki motivatsiya shaxsning o‘zidagi qiziqish, faol bilish istagi, o‘ziga ishonch va shaxsiy o‘sishga intilishdan kelib chiqadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ichki motivatsiya ko‘pincha bilim olish jarayonining mazmuniga, o‘qituvchi bilan ijobiy munosabatga, o‘yin elementlariga va ijodiy faoliyatga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘zini anglash, atrofdagilar bilan to‘g‘ri muloqot qilish, yangi ma’lumotlarni bilish orqali quvonch his qilish kabi holatlar ichki motivatsiyaning namoyon bo‘lishidir.

Tashqi motivatsiya esa asosan ta’lim jarayonidagi tashqi omillar: baholar, rag‘batlar, jazo, muhitdagi ta’sirlar, ota-ona yoki o‘qituvchining talablari asosida shakllanadi. Bunday motivatsiya turi boshlang‘ich sinflarda ko‘p uchraydi, chunki o‘quvchi ko‘p hollarda ota-onasi yoki o‘qituvchisining maqtoviga erishish, yomon bahodan qochish yoki tengdoshlari oldida o‘zini namoyon qilish uchun harakat qiladi. Ta’limda yuqori natijalarga erishish uchun ichki va tashqi motivatsiyani uyg‘un holda qo‘llash, ularni muvofiqlashtirish orqali o‘quvchi faoliyatini faollashtirish tavsiya etiladi. Shu yo‘l bilan shaxsiy va ijtimoiy rag‘bat omillari birgalikda samarali natija beradi.

Ijtimoiy faollikka undash ta’lim muhitida o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim olish jarayonining shaxsiy ma’nosini anglash bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiziqish ta’lim faoliyatining tabiiy rag‘batlantiruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Agar o‘quv mazmuni bolaning kundalik hayoti bilan bog‘lansa, uning shaxsiy tajribasi va hissiy holatiga mos kelsa, bu holat ta’limni mazmunan boyitadi va faollikni oshiradi. Qiziqish orqali olinayotgan bilim mazmunli va ahamiyatli tuyuladi, shu orqali o‘quvchi faol muloqotchi va ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllanadi. Shuningdek, ehtiyoj nafaqat biologik, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan o‘zgaruvchan kategoriya sifatida ta’limga daxldor bo‘lib, insonning muayyan faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji uni harakatga undaydi. Ta’limda bu ehtiyoj shaxsiy yutuqlarga erishish, o‘z qobiliyatini namoyon qilish, guruhda faol qatnashish istagi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda shaxsiy ma’no, ya’ni o‘quvchining o‘z faoliyatining hayotdagi ahamiyatini anglashi va uning natijasiga shaxsiy munosabati shakllanishi muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Ta’lim mazmuni o‘quvchida nafaqat bilim, balki shaxsiy ma’no ham uyg‘otsa, uning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi chuqurlashadi va ijtimoiy faollikni namoyon etishga intilishi kuchayadi. Shu nuqtayi nazardan, qiziqish, ehtiyoj va shaxsiy ma’no o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bolada shaxsiy faollikni rag‘batlantiradigan muhitni yaratadi, bu esa integrativ-kommunikativ muhitning samaradorligini ta’minlaydi.

Kognitiv omillar va tafakkur jarayoni o‘quv muhitining tuzilishi, undagi o‘zaro munosabatlar, faoliyat turlari va muloqot imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq ravishda shakllanadi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati asosan obrazli, tajribaga asoslangan va shaxsiy anglash orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda muhit, ya’ni darsdagi psixologik, intellektual va ijtimoiy sharoit bolaning tafakkuri rivojlanishi uchun muayyan imkoniyatlar va cheklovlarni belgilaydi. Shu bois kognitiv o‘sishni ta’minlovchi ta’lim muhitini shakllantirish, uning didaktik, lingvistik va psixologik omillarini tizimli tashkil etish ta’lim samaradorligining muhim omili hisoblanadi.

Kognitiv strategiyalar bolalarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida fikrlashni tartibga soluvchi va samarali anglashni rag‘batlantiruvchi muhim vositalar hisoblanadi. Mahalliy tadqiqotchi S. T. Sultonov ta’kidlaganidek, “O‘quvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishda tafakkurning ongli boshqarilishiga yo‘naltirilgan strategiyalarni o‘rgatish muhim hisoblanadi”. Boshlang‘ich sinflarda bu strategiyalar o‘quv faoliyatida bilimlarni to‘g‘ri tashkil etish, faktlar orasidagi aloqalarni ko‘rish, gipotezalar ilgari surish, xulosa chiqarish, savol berish va dalillash jarayonlari orqali shakllanadi.

Kognitiv strategiyalar o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab olib, o‘quvchida mustaqil fikr yuritish va muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, “Tafakkur xaritasi” vositasi orqali ma’lumotlarni guruhlash, asosiy g‘oyani ajratish va ular orasida bog‘liqlik o‘rnatish imkoniyati paydo bo‘ladi. “Aqliy hujum”, “Fikrlash tuynugi”, “Vaziyatli tahlil” usullari esa bolalarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Bunday strategiyalar, ayniqsa, faol muloqot muhitida, guruhli ishlarda, keys va kvest shaklidagi darslarda o‘z samarasini beradi. Shuningdek, kognitiv strategiyalarni shakllantirishda vizual, audio va mantiqiy ma’lumotlarni uyg‘unlashtirish muhim o‘rin tutadi. Jumladan, “Verbal-obrazli tahlil”, “Klaster” va “Semantik to‘r” kabi didaktik vositalar bilimlarni grafik va tuzilmaviy jihatdan anglashga yordam beradi. Bu esa o‘quvchining shaxsiy anglashiga, ma’noni chuqur o‘zlashtirishiga va mustaqil xulosa chiqarishiga turtki bo‘ladi. Kognitiv strategiyalarni ta’lim muhitiga tizimli tatbiq etish esa nafaqat axborotni berish, balki bilimlarni qayta ishlash, anglash va qo‘llash jarayonini samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Neyropedagogik va psixologik mexanizmlar ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, hissiy holati, diqqati, xotirasi, tafakkuri va motivatsiyasini hisobga olgan holda bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash va o‘zlashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’limiy ta’sirning neyropsixologik xususiyatlarini bilish ularning ongli va hissiy faoliyatini rag‘batlantirishga yordam beradi. Neyropedagogikaga ko‘ra, bolalar miya faoliyatining neyroplastiklik xususiyati ularda yangi bilimlarni qabul qilish, turli

ma'lumotlar orasida bog'lanish o'rnatish va tajriba orqali ma'no yaratish imkoniyatini ochadi. Bu mexanizmlar bolaning tafakkurini rivojlantirishda sensor taassurotlar, hissiy holatlar va multimodal o'qitish (audio, vizual, kinestetik) orqali ta'lim muhitini boyitishni talab qiladi. Masalan, jonli muloqot, rolli o'yinlar, ovoz yozuvlari, interfaol slaydlar va jismoniy harakatlarga boy darslar bolaning bilish faoliyatini faollashtiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday faollashtiruvchi muhit asab-ruhiy holatning barqarorligini saqlash, diqqatni uzoq vaqt ushlab turish va ma'lumotlarni xotirada saqlashni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan bola o'quv jarayonida o'zini xavfsiz his qilishi, baholashda adolatni sezishi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyati mavjudligini anglashi kerak. Bu esa motivatsiyani mustahkamlaydi va ta'limiy muvaffaqiyatga turtki beradi. Ta'limda "Empatik muloqot", "Refleksiya", "Ixtiyoriy diqqatni rag'batlantirish" kabi psixologik mexanizmlarning tatbiq etilishi har bir o'quvchida shaxsiy ta'limiy trayektoriyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Quyida ushbu psixologik mexanizmlarga misollar keltiriladi.

Empatik muloqot. 1-sinfda "Mening oilam" mavzusini o'rganish jarayonida o'qituvchi bolalardan: "Agar seni do'sting ranjitsa, sen nima qilgan bo'larding?" — deb so'raydi. Bir bola: "Men uni kechiraman va gaplashaman", — deb javob beradi. O'qituvchi bu javobni ijobiy baholab, boshqalarning hissiyotlariga hamdard bo'lish muhimligini tushuntiradi. Bu orqali o'quvchilarda hissiy hamdardlik va empatik fikrlash rivojlanadi.

Refleksiya. 3-sinfda o'quvchilar "Kamalak haqida she'r yozish" mashqini bajarganidan so'ng, o'qituvchi shunday deb so'raydi: "Sen bu mashqda o'zingni qanday his qilding? Eng yaxshi qaysi misrani yozdim, deb o'ylaysan?" O'quvchi o'z fikrini aytib, o'ziga baho berish va his-tuyg'ularini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu individual ta'limiy refleksiyaga asos yaratadi.

Ixtiyoriy diqqatni rag'batlantirish. 2-sinfda o'qituvchi darsda "Matndagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qish" mashqini o'yin ko'rinishida tashkil etadi: har bir to'g'ri o'qilgan so'z uchun o'quvchiga "Yulduzcha" beriladi. Ushbu rag'batlantiruvchi usul orqali o'quvchining diqqatini uzoq vaqt saqlab turishga erishiladi va mashq interaktiv muhitda amalga oshiriladi.

Umuman olganda, neyropedagogik va psixologik mexanizmlar o'quvchi miyasining biologik va ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini individuallashtirishga, kommunikativ va tafakkur faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu mexanizmlarni to'g'ri tanlash va qo'llash bolalarning tabiiy o'rganish qobiliyatini faollashtiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta'lim muhitidagi muloqot shakllari muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muloqot faoliyatining turli shakllarda tashkil etilishi ularning nutqiy ifodalash, fikr almashish va ma'no yaratish qobiliyatlarini faollashtiradi. Ta'lim jarayonida samarali muloqot shakllari orqali o'quvchi–o'qituvchi, o'quvchi–o'quvchi, guruhlararo va jamoaviy munosabatlar rivojlanib, har bir subyektning o'zaro aloqada bo'lish tajribasi kengayadi. Shu bois ta'lim muhitini tashkil etishda muloqotning tarbiyaviy, didaktik va ijtimoiy funksiyalarini qamrab olgan shakllarni tanlash va tatbiq etish kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Verbal va noverbal muloqot shakllari ta'lim muhitida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Verbal muloqot — so'z orqali fikr almashish, tushuntirish va bahslashish faoliyati bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutqiy taraqqiyotning asosiy vositasidir. Shu bilan birga, noverbal muloqot — ishora, mimika, pantomimika, ovozning intonatsiyasi kabi ifodalar orqali anglash va anglatish jarayoni bo'lib, o'quvchilarning emotsional aloqasi va tushunish darajasini shakllantirishga xizmat qiladi. M. Yo. Xo'jayev ta'kidlaganidek: "Nutq faoliyati – bu faqatgina so'zlashish emas, balki muloqot jarayonidagi barcha signallarni to'g'ri qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatini qamrab oluvchi murakkab tizimdir".

Bundan tashqari, ta'lim muhitida intersubyektiv muloqot holatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu shakldagi muloqot o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxsiy munosabat, ehtirom va e'tirofga asoslangan tenglik tamoyilini ta'minlaydi. Ishtirokchilarning ichki dunyosi, bilim va tafakkur holati, mulohazalari va hissiyotlari o'zaro ta'sirga kirishadi hamda o'quv jarayonida emotsional-intellektual muhitni shakllantiradi. Verbal va noverbal holatlar intersubyektiv muloqotning tashqi va ichki ifodalari bo'lib, ular o'zaro munosabatlarda ijtimoiy anglash, hamdardlik va munosabatlar dinamikasini mustahkamlaydi. Shu tariqa ta'limda turli muloqot shakllari nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki shaxsni kamol toptiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida ta'lim muhitining motivatsion va kognitiv omillari o'zaro uzviy bog'liq pedagogik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijasida boshlang'ich ta'limda kommunikativ muhitni samarali tashkil etish o'quvchilarning nafaqat nutqiy faolligini, balki mustaqil fikrlashi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, o'z nuqtayi nazarini asoslab berishi va boshqalarning fikrini anglash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Motivatsion omillar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishi, muloqotga kirishish istagi va faol ishtirokini rag'batlantirsa, kognitiv omillar axborotni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish hamda fikrni mantiqiy ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ichki va tashqi motivatsiyani uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish, kognitiv strategiyalardan maqsadli foydalanish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

Shuningdek, empatik muloqot, refleksiya, verbal va noverbal kommunikatsiya shakllari, rolli o'yinlar, jamoaviy munozaralar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning kommunikativ tajribasini boyitadi. Bunday faoliyat turlari ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarini mustahkamlab, o'zaro hurmat, hamkorlik va psixologik xavfsizlikka asoslangan muhitni shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'limda integrativ-kommunikativ muhitni yaratish motivatsion, kognitiv, psixologik va didaktik

ISSN 3060-5059 (Online)

omillarning yaxlit tizim asosida tashkil etilishini talab qiladi. Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini izchil rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlaydigan, faol muloqotga kirisha oladigan va ijtimoiy munosabatlarda o‘z pozitsiyasini namoyon eta oladigan shaxs sifatida shakllanishiga pedagogik zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мавлонова Р. А. Развитие начального образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1998. – 35 с.

2. Mavlyanov A., Abdalova S., Ernazarov A. E. O‘quv maqsadlarini aniqlashtirish va ularni topshiriqlarga aylantirish texnologiyasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2015. – 102 b.

3. Mavlyanov A. va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2010. – 117 b.

4. Matchonov S. Adabiy ta’lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari // Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy axborotnomasi. – 2020. – № 1. – B. 49–53. – URL: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=WzBXxXoAAAAJ&citation_for_view=WzBXxXoAAAAJ:iH-uZ7U-co4C.

5. Matchonov S. Kitobxonlik va mutolaa madaniyati // Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish: xalqaro konferensiya materiallari. – Buxoro: BuxDU, 2020. – B. 89–92.

6. Mahkamov U., Jumanova F., Ravshanov J. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishga tayyorlash // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – № 3. – B. 815–830.

7. Masharipova U. A. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni rasm asosida insho yozishga tayyorlash // Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2018. – B. 480.

8. Миркосимова М., Шукуров Ф. А., Халимова Ф. Т. Сравнительная характеристика адекватности самооценки, тревожности и типов ВНД у студентов // Материалы конференции «Агаджаняновские чтения». – 2020. – С. 254–256. – URL: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xVIJfzIAAAAJ&citation_for_view=xVIJfzIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C.